

INGLIZ VA O'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATI TARJIMALARIDAGI TRANSFORMATSIYALAR (NAVOIY VA SHEKSPIR SHE'RIYATI MISOLIDA)

Ahadova Muhabbat Akmal qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: ahadovamuhabbat0803@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek mumtoz she'riyatini tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan semantik transformatsiyalar va bu o'zgarishlarga sabab bo'luvchi omillar pragmatik aspektida o'rganilgan. Shuningdek, poetik ifodaning saqlanishi va madaniy moslik masalalari ham misollar asosida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: adekvatlik, tarjima transformatsiyalari, mumtoz adabiyot, g'azal, tragediya.

“Tarjima — bir tilda yaratilgan muayyan asarni o'zga bir xalq ma'naviy ehtiyojiga xizmat qildiradigan, undan badiiy zavq olish uchun imkoniyat yaratib beradigan kommunikativ vositadir”[5, 16]. Tarjimaga kirishar ekan har qanday tarjimonning asosiy maqsadi adekvatlikka erishish bo'ladi. Ayniqsa, badiiy va she'riy tarjimalar jarayonida adekvatlikka erishish, asliyat matndagi ma'noni, mazmunni, ohangdorlikni, ta'sirni, ritmni saqlab qolgan holda maqsadli tilga ko'chirish tarjimondan kuchli iqtidor va salohiyat talab qiladi. Xususan, mumtoz adabiyotdagi she'rlar, g'azallar, sonetlar tarjimasi yana ham mushkul jarayon hisoblanadi. Tarixiy-arxaiik jumlar va iboralarning ko'pligi, o'sha davr madaniyati va ijtimoiy, siyosiy holatinig farqli ekanligi mutarjimlarimizning ish jarayonini yana ham murakkablashtiradi. Shunga qaramay, so'nggi yillarda o'zbek va ingliz mumtoz adabiyoti tarjimasiga qo'l urgan va adekvat tarjimaga erishgan tarjimonlarimiz bisyor. Jumladan, Qosim Ma'murov, A'zam Obidov va Dinara Sultonovalar Navoiy g'azallarini to'g'ridan-to'g'ri ingliz tiliga tarjima qilishgan. Bu esa ikki xalq orasidagi munosabatlarni mustahkamlashga, adabiyotini boyitishga, bir-birining o'tmishidan xabardor bo'lishga, madaniyatini, diniy qadriyatlarini, ijtimoiy kelib chiqishini anglashga o'z hissasini qo'shmoqda.

Ingliz va o'zbek tillari grammatik tuzilishi jihatidan, leksik va semantik jihatdan bir-biridan keskin farq qiladi. Ikki xalq madaniyati, kelib-chiqishi, ijtimoiy holati, siyosiy mavqeyi ham bir-biriga sira o'xshamaydi. Bu farq va tafovutlar tarjima jarayonida tez-tez ko'zga tashlanib turadi. Bunday holatda tarjimonga tarjima transformatsiyalari yordam beradi. “Tarjima transformatsiyalari orasida tarjimada transformatsiyaga asos bo'lib xizmat qiladigan so'z qo'shish, so'zni tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, kalkalash, tasviriy tarjima usullari asos qilib olinadi. Transformatsiyalar sonining kam bo'lishi tillarning bir-biriga yaqinligidan, transformatsiyalar miqdorining ko'pligi tillarning bir-biridan uzoq ekanligidan dalolat beradi”[8, 131].

Navoiyning mashhur g'azallaridan biri bo'lmish, "G'aroyib us-sig'ar" to'plamidagi "Ayt" radifli g'azalidagi birinchi baytning Q. Ma'murov va Leonid Kmetyuklar (2000-yil chop etilgan "Ummondan durlar" kitobida) [7] hamkorligidagi, D. Sultonova (2015-yilda nashrdan chiqqan "Selected Gazels of Navoi") [6] tarjimasidagi, amerikalik tarjimon olim Denis Deli (2016-yil "Twenty-one Ghazals" kitobi) [1] talqinidagi tarjimasini qiyosiy tahlil qilib, tarjimadagi transformatsiyalarni aniqlashga harakat qilamiz. Tahlil jarayonida Aidaxon Bumatovanning "She'riy tarjimada ma'no talqini" nomli maqolasidan foydalandik.

Birinchi bayt:

**Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg'a ayt,
Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandonimg'a ayt.**

Ushbu baytning tasavvufiy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, g'azal "nasimi subh" ya'ni "tong shamoli"ga murojaat qilish bilan boshlanmoqda. Shamoldan mumtoz adabiyotda oshiqning dard-u iztiroblarini mashuqaga eltuvchi, yetkazuvchi obrazida, jonlantirish usulida ishlatiladi. Ikkinchi misrada esa mashuqaning go'zalligi "zulfi sunbul", "yuzi gul", "sarv" kabi jumlar bilan tasvirlanmoqda. Agar baytni nasriy tarjima (plain prose translation) usulida tarjima qilsak, quyidagicha tarjimaga ega bo'lamiz: Ey tong shamoli, ahvolim haqida dilimga orom beruvchi, xushbo'y kokilli, qomati sarv daraxtidek tik, gul ruxsoringa aytib bergin.

D. Sultonova tarjimasi:

**O gentle wind of morn of my state to the delight of heart tell,
To my bonny cypress whose curl- fair, face- like a floweret tell.**

Tarjima:

*Ey tongning nafis shamoli, mening ahvolimni diloromimga ayt,
Mening zulfi go'zal, yuzi guldek xushro'y sarvinga ayt.*

Tarjimada shamolga murojaat personifikatsiya saqlagan holda qolgan; Mashuqa obrazidagi ta'riflarning o'rni almashgan (inversion/substitution); metafora san'ati sifatlash usulida tarjima qilingan (modification); "muattar iforli zulf" ingliz tilida "go'zal zulf" birikmasiga almashtirilgan (modulation) [4, 136].

Q. Ma'murov va Leonid Kmetyuk tarjimasi:

**O breeze of dawn, go and describe my state to the one who is the joy of my
heart,
Tell my beauty whose curls are black and whose face is as tender as a
flower...**

Tarjimasi:

*Ey tonging nafis shamoli, bor va mening ahvolimni yuragimning
quvonchi bo'lgan bittasiga ta'riflab ber,
Ayt mening zulflari qora va yuzi guldek nozik go'zalimga.*

"Ey nasimi subh" inglizlar uchun anchagina tanish bo'lgan "O breeze of dawn"ga o'zgartirilgan (adaptation); Metafora o'xshatish san'atiga o'zgargan (modification); zulfning xushbo'yligi, "qora zulf"ga o'zgartirilgan (modulation); "sarv" so'zi tushurilgan (omission) [4, 137].

D. Deli tarjimasi:

*Dawn-walking, rollicking, and eager wind
You carry my words. Sustain them, o wind.*

Tarjimasi:

*Tongda kezuvchi, beg'am, sho'x va shiddatli shamol,
Mening so'zlarimni olib bor. Saqlab qol ularni o shamol.*

Bu tarjima eng sqiq tarjimadir, ammo mashuqa tasviri butunlay tushurib qoldirilgan (omission), shamol obrazi esa tasviriy usulda tarjima qilingan (descriptive translation) [4, 137].

Endi esa ingliz mumtoz adabiyotining yorqin namoyondalaridan bo'lmish Shekspirning ijod namunalaridan birini Maqsud Shayxzoda va Jamol Kamol talqinidagi tarjimalar asosida qiyosiy o'rganib, tarjimadagi o'zgarishlarni aniqlaymiz.

“Shekspir bepoyon” [10] degan edi Gyote. Haqiqatdan ham Shekspir ijodi hanuz keng ko'lamda o'rganilmoqda. Uning tragediyalari, komediyalari hamda sonetlari ko'plab xorijiy tillarga to'g'ridan-to'g'ri yoki vosita til orqali tarjima qilingan. Xususan, Jamol Kamol ingliz tilidan bevosita tarjima qilgan bo'lsa, Maqsud Shayxzoda, Cho'lpon, G'afur G'ulomlar vosita til, rus tilidan (M. Lozinskiy, A. Kroneberg tarjimalaridan) [10] o'zbek tiliga o'girishgan.

“Hamlet” tragediyasidan:

*... Soft you now!
The fair Ophelia! Nympe, in thy orisons
Be all my sins remember'd.*

Misralarni birma-bir o'rganamiz. “Tinchlan! Sohibjamol Ofeliya! Nimfa ibodatlariningda mening gunohlarimni ham eslagin.” Bu so'zma-so'z tarjimadir. Bu yerda Hamlet sevgilisi Ofeliyani yunon xudosi Zevsning sohibjamol, zukko qizi Nimfaga qiyoslayapti. Endi esa o'zbek tarjimonlarimizning tarjimalariga nazar tashlaymiz.

Maqsud Shayxzoda tarjimasi:

*...Endi bas, yetar!
Ofeliya! Quvonchim! Gunohlarimga—
O'z duolaringda kechirim tila, ey pari!*

Ko'rib turganingizdek tarjimada “fair” ya'ni “sohibjamol”, “Nympe” — “Nimfa” tushirib ketilgan (omission); “ey pari”, “quvonchim” kabi undalmalar qo'shilgan (addition); so'nggi misra esa “ibodatlariningda gunohlarimni eslagin” emas, balki “duolaringda kechirim tila” shaklida o'zgartirilgan modulation).

Jamol Kamol tarjimasi:

*Bas, kifoya! Ofeliya! Ey go'zal pari,
Bir osiyma, duoingda yod ayla meni!*

Bu tarjimada ham Nimfa tushib qolgan (omission); “Gunohlarim” so'zi o'rniga “Bir osiyma” jumlasini qo'shilgan (modulation).

Xulosa qilib aytsak, tarjimadagi o'zgarishlar asliyat til va maqsadli til orasidagi madaniy, leksik, semantik, grammatik tafovutlar tufayli kelib chiqadi. Z. Shukurova aytib o'tganlaridek, ingliz tilidan o'zbek tiliga she'riy matnlarni tarjima qilishda “syllabic rhytm” [9] ya'ni bo'g'inlar soni, qofiyadoshligi e'tiborga olinsa, o'zbek

tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida “*English versification*” [9] ya’ni ingliz tili she’riyat qoidalari asosida tarjima qilish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Deli Dennis. Twenty-one Ghazals Alisher Navoiy — Sommervil: Servena Barva Press, 2016. — 46 b.
2. Peter Newmark. A Textbook of Translation. — New York London Toronto Sydney Tokyo: Prentice Hall, 1987, — 310 p.
3. A. Navoiy. G’aroyib us-sig’ar, MAT, III jild. — Toshkent: Fan 1992. — 573 b.
4. Bumatova A. She’riy tarjimada ma’no talqini. “O’zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal, — №6, 2019. — B. 132–152.
5. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asarlari. — Toshkent: Mumtoz so’z, 2011. — 166 b.
6. Sultanova D. Selected Gazels of Navoiy — Toshkent. 2015 — 68 b.
7. Ummondan durlar. G’azallar, hikmatlar va ruboiylardan namunalar. Tarjima to’plami/Tuzuvchi Y.Parda. — Toshkent: Sharq, 2000. — 113 b.
8. Qambarov, N.: Tarjimada transformatsiyalarga sabab bo’ladigan vaziyatlar xususida. “O’zbekiston xorijiy tillar” ilmiy-metodik jurnal, — № 1, 2018. — B. 145–149.
9. Shukurova. Z. The Ways of Recreation of Navoi’s Gazels in Russian and English // “The Role of Linguistics and Verbal Communications in the Process of Informational Support of Ethnic Originality of Nations and their Progressive Interaction” Conference materials. - London, November 4–11, 2015. — P. 48–50.
10. <https://kh-davron.uz/ijod/tarjimalar/shekspir-ikki-maqola-sonetlar.html>